

MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISH

Norov Shokir Safoqul o'g'li

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyati kafedrası 12-2 vokal 20 guruh talabasi

Annotatsiya:

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini musiqani yoqtirishi, doston qo'shiqlari vositasida ularni go'zallik olamiga olib kirish, ijrochilik mahoratlaridan bahramand bo'lish va ularni o'z xalqining musiqa asarlarini qadrlashga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda ularda engil-elpi musiqaga lardan uzoqlashish hissi paydo bo'ladi.

Kalit so'zlar: xalq dostonlari, ma'naviyat, musiqa, ijrochilik mahorati, ohang.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" deb da'vat etadi.¹

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini doston qo'shiqlarini qalbida his qilib idrok qilishga yo'naltirish

Doston qo'shiqlaridan oladigan ma'lumotlarning keng qamrovli bo'lishini ta'minlash, hissiy ta'sirchanlikni o'stirish uchun talabalarni musiqiy madaniyatini rivojlantirish zarur. Bo'lajak musiqa o'qituvchilariga o'rgatiladigan doston qo'shiqlarining musiqiy bezagi, undagi nola va qochirimlardan unumli foydalangan holda xalq an'analari, udumlari hamda xalq og'zaki ijodi bilan uzviy bog'lab, talabalarga singdirilishi lozim.

Doston namunalari ta'sirchanligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri—uning talabalar hissiyotiga tez ta'sir qila olishidir.

a samarali, kuchli va chuqur ta'sir eta olishida namoyon bo'ladi. Doston qo'shiqlarini ijro etish jarayonida so'zning emotsionalligi bilan birgalikda undagi harakatchanlik, epchillikka undash, imo—ishoralar, tovushlarning ohangdorligi, cholg'u sozlarning musiqiy jozibadorligi talabalarda go'zallikka bo'lgan intilishni shakllantiradi hamda, ma'naviy-axloqiy tarbiya vositasi bo'lib xizmat

Doston namunalarida ifodalangan o'gitlar, namuna ko'rsatish, o'rnak bo'lish, murojaat qilish, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish kabi poetik vositalar; bo'lajak musiqa o'qituvchilarini Xorazm xalq ma'naviyatini rivojlantirishda tarbiya manbasi sifatida xizmat qiladi.

Doston qo'shiqlari muhim ijtimoiy pedagogik, ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega. Jumladan, ular talabalarni yoshligidanoq foydali ishlarga o'rgatish, jamiyat uchun manfaat keltiradigan, barkamol shaxs bo'lib etishishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, doston qo'shiqlari talabalarda yuksak insoniy fazilatlar: vatanparvarlik, mehnatga muhabbat, do'stga sadoqat, odamlarga ishonch tuyg'ularini shakllantiradi.

¹ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. -Тошкент: Ўзбекистон, 2016. - 56 Б.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 26 aprelda qabul qilingan "Baxshichilik va dostonchilik san'atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-sonli qarorida jumladan shunday deyiladi: "Ayni paytda baxshichilik va dostonchilik san'atining tarixi, baxshilar va dostonchilar ijodini mukammal o'rganish, bu borada og'zaki ijodi yodgorliklarini to'plash, nashr etish yuzasidan yana ko'pgina chora-tadbirlarni amalga oshirishga ehtiyoj sezilmoqda."

Yurtimizdagi har bir baxshichilik maktabining o'z yo'li, mahalliy shevadan kelib chiqqan holda so'z boyligi xalq ertaklari, dostonlarida mujassamlangan. Masalan, mamlakatimizdagi hozirgi Surxondaryo, Xorazm, Qashqadaryo viloyatlaridagi baxshichilik maktablari bevosita bir biridan farq qilgan. Aytaylik, "Go'ro'g'li", "Alpomish" turkumidagi dostonlar har bir baxshichilik tabida o'ziga xos tarzda ijro qilingan.

Xususan, "Go'ro'g'li" turkumidagi qirqdan ortiq dostonlar turli baxshichilik maktablarida o'ziga xos tarzda aytilgan. Xuddi shu misolni "Alpomish" turkumiga kiruvchi o'nlab dostonlar qiyosida

Mamlakatimizda jismonan sog'lom, ma'naviy etuk, har tomonlama uyg'un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yosh avlodni tarbiyalab voyaga etkazish uchun talay ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada musiqa tarbiyaning ahamiyati beqiyos. Shuning uchun ham musiqiy pedagogikaga oid ilmiy-ijodiy yangiliklarni, ayniqsa musiqa mashg'ulotlarini bugungi yoshlarning salohiyatiga mos zamonaviy talablar asosida tashkil qilish texnologiyasi o'rganish foydadan holi bo'lmaydi.

O'zbek xalq musiqa merosi o'zining tarbiyaviy imkoniyatlari bilan boshqa san'at turlariga nisbatan alohida jozibadorlik va ta'sirchanlik kasb etadi. Xalqimiz o'zining ijtimoiy, ma'naviy taraqqiyotining har bir bosqichida, uning turfa ko'rinishlari, urf-odat va marosimlariga atab juda ko'plab qo'shiqlar namunalarini yaratgan. Bu esa, uzoq o'tmishdan madaniy va ma'rifiy jihatdan o'ziga xos an'anaga aylanib kelgan xalq hayotining turli qirralarini badiiy estetik ifodasi sifatida, an'anaviylik asosida avlodan-avlodga o'tib, kishilar tarbiyasiga bevosita yoki bilvosita kuchli, badiiy-emotsional ta'sirini ko'rsatib kelgan.

Baxshichilik va dostonchilik san'atini rivojlantirish hozirgi davr talablaridan biridir. Negaki, dostonlarda xalqimizning azaliy orzu armonlari, yuksak tafakkur salohiyati, mardlik, hur fikrlilik, erkinlik, bunyodkorlik, halol mehnat, iymon-e'tiqod g'oyalari ilgari surilganligi bilan ham ularning tarbiyaviy ahamiyati tobora ortib borayapti.

Dostonchi, odatda, voqea eng qiziq joyga etganda kuylashni to'xtatib, tanaffus qilgan, bu esa hrif buyurgan. Bunday hollarda dostonchilar o'zaro tortishuvga kirishganlar.

Doston an'anasi hozirgi kunda ham davom etmoqda, ammo kuylash tartibi va sharoitlarida birmuncha o'zgarishlar bor. Endilikda baxshilar teatlarda, kontsert zallarida, katta sayil va hasharlarda, radio va televidenie orqali uyushtirilgan ko'rik-tanlovlarda o'z mahoratlarini keng

Doston xalq ma'naviy qadriyatlarini qorishiq holda mujassamlashtirgan xalq og'zaki ijodi bo'lib, unda qo'shiq kuylash, musiqa diklomatsiya qilish, bayon qilish kabi badiiy-estetik qadriyatlar mujassamlashtirilgan. Dostonlarda yuksak insoniy fazilatlar baxshilar tomonidan

Dostonning g'oyaviy yo'nalishi, asosan, xalqning turmush sharoitini samarali tashkil etish, ularning

va baxt-saodatga erishishning birdan-bir yo'li-maqсад sari qat'iy intilish, sabr va chidam, matonat, mardlik, qahramonlik ko'rsatishdan iboratdir.

bat umuminsoniy qadriyat sifatida insonning ma'naviy qiyofasini belgilab beradigan omil, har qanday yovuzlik ustidan qilinadigan g'alabani ta'min etadigan kuch, insonni jasoratga undaydigan va qalbidagi barcha ezgu fazilatlarini ro'yobga chiqaradigan vosita sifatida tarannum etiladi hamda o'quvchini sadoqatli qahramonlar timsolida shu tuyg'uga ilhomlantiradi.

Dostonlardagi milliy g'urur tuyg'usi kuylovchi va tinglovchi o'rtasidagi badiiy-estetik muloqot vositasida ma'naviy muhit ta'sirida o'quvchi ongida shakllantiriladi. Dostonlarda pedagogikadagi tarbiya manbalari va vositalarining o'zaro ta'siri hamda aloqasi yaqqol namoyon bo'ladi. Bu esa, o'quvchini har tomonlama shakllantirishda tarbiya qirralariga yaxlit yondashishni ta'minlaydi. Iqning dostonchilik namunalaridan foydalanish, doston qo'shiqlaridan tinglash bo'lajak musiqa o'qituvchilarda tarixiy qahramonlar va ularning jasoratini yaqqol tasavvur qilishga imkon beruvchi muhim vositadir. Xalq qo'shiqlari katta hayajonlantiruvchi kuchga ega, adabiyot va san'at uchun

ro'yxati:

1. Kholmuradovna R. U., Obidovna R. M. Social norms, sanctions and personality //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 115-118.
2. Рамазонова У. Х., Сайфуллаева О. М. Развитие чувства ритма у детей //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 49-51.
3. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501..
4. Ramazonova O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. file:///C:/Users/user/Downloads/Telegram Desktop/Бехруз Болтаев (2).rtf2. – №. 1. – С. 336-339
5. Kholmurodovna U. R. Formation of publicistic performing skills in singing. – 2021.O
6. Hamidovich B. B. INTERPRETATION OF THE METHODS OF BUKHARA SHASHMAKOM AND THE FUNDAMENTALS OF MAKOM //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 1063-1066.
7. Hamidovich B. B. AL-FARABI AND IBN SINA'S CLASSIFICATION OF THE FOUNDATIONS OF THE THEORY OF" IYKUT" METHODS IN ORIENTAL MUSIC EDUCATION //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 102-104.
8. Boltayev B. H. O 'ZBEK MILLIY QO 'SHIQCHILIGINING QADR TOPISH XUSUSIYATLARI //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 312-318.
9. Mustafoyev B. TA'LIM ISLOHOTLARI MAZMUNIDA YOSH AVLOD MUSIQA MADANIYATI TARBIYASI //TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 60-66.
10. Rajabov T. I., Ibodov O. R. O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 139-145.
11. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.
12. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY

- IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.
13. Ortiqov O. R. TALABALAR MA'NAVIY AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA "QOBUSNOMA" ASARIDAN FOYDALANISH //Conferencea. – 2023. – С. 1-5.
 14. Ortiqov O. R. O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPENTLIKNING ROLI VA AHAMIYATI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 42-47.
 15. Жураев Б. Т., Абдурахмонова Д. У. Эстетическое развитие школьников средствами узбекского музыкального фольклора //Вестник Чувашского государственного института культуры и искусств. – 2019. – №. 14. – С. 77.
 16. Жураев Б. Т. Социально-духовное развитие студентов //Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 22-23.
 17. Умурова М. Ё. The importance of using pedagogical technologies in special educational schools //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 22-2. – С. 24-26.
 18. Умурова М. Ё. РОЛЬ ТРУДОВЫХ ПЕСЕН В ФОЛЬКЛОРЕ //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 43. – С. 97-101.
murova M. Y. Practical Possibilities of Spiritual-Moral Formation through Folk Songs //Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN. – Т. 2795. – №. 546X. – С. 55.